

Suvda ham quruqlikda yashovchilar sinfi sistematikasi
Andijon Davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yoʻnalishi 2-bosqich talabasi
Abulqosimov Abdurahmon

Annotasiya: Suvda ham quruqlikda yashovchilar quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarning kam sonli sinfi boʻlib, oʻz ichiga 2500 ga yaqin turni oladi. Oʻzbekistonda suvda ham quruqlikda yashovchilarning 3 ta turi uchraydi.

Kalit soʻzlar: Oyoqsizlar, dumlilar, dumsizlar, kapulyativ, oʻmrov.

Suvda ham quruqlikda yashovchilar quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarning kam sonli sinfi boʻlib, oʻz ichiga 2500 ga yaqin turni oladi. Oʻzbekistonda suvda ham quruqlikda yashovchilarning 3 ta turi uchraydi. Ular Oyoqsizlar (Apoda), Dumlilar (Caudata) va Dumsizlar (Ecaudata) turkumlariga boʻlinadi . turkumiga 80 ga yaqin tur kiradi, ular tashqi koʻrinishidan chuvalchaglarga oʻxshaydi. Tropik zonalarda tarqalgan, yer tagida hayot kechiradi. Oyoqlari yoʻq, koʻzlari reduksiyalangan. Uruglanishi ichki. Kopulyativ organi bor. Umurtqalari amfisel tipida, qobirgʻalari bor. Yurak boʻlmalari orasidagi parda toʻliq emas. Bu turkumga Janubiy Amerikada tarqalgan halqali chervyaga va Janubi—Sharqiy Osiyoda tarqalgan seylon ilonbaliqni vakil qilib keltirsa boʻladi. Dumlilar (Caudata) turkumiga 350 ga yaqin tur kiradi va ular asosan shimoliy yarim sharda tarqalgan. Gavdasi uzunchoq boʻlib, yaxshi rivojlanmagan dumi bor. Oldingi va keyingi oyoqlari deyarli bir xil uzunlikda boʻladi. Tana umurtqalariga kurtakka hshash qobirgʻalari birikkan. Peshona va tepa suyaklari qoʻshilmagan. Oʻmrov suyagi yoʻq, bilak, tirsak hamda katta va kichik boldir suyaklari zaro qoʻshilmagan. Keyingi kovak vena bilan bir qatorda kardinal venalar ham saqlanadi. Yon chiziq organi umrbod saqlanadi. Umgʻlanishi ichki. Baʼzi turlarida neoteniya hodisasi uchraydi, yaʼni lichinkasi metamorfozga uchramasdan lichinka holida koʻpayadi. MDH hududida dumli amfibiyalardan tritonlar keng tarqalgan. Karpat togʻlarida olovli salamandra, Uzoq Sharqda yapon salamandrasi, Bolqon orollarida esa protey va boshqa turlari yashaydi. Dumsizlar (Anura) turkumiga 2100 ga yaqin tur kiradi. Boshi yapaloq, tanasiga tutashib ketadi, dumi yoʻq, keyingi oyoqlari oldingisiga nisbatan 2 — 3 marta uzun. Shu sababli ular sakrab harakat qiladi. Uruglanishi tashqi. Dumsiz amfibiyalarga toʻgarak tillilar, haqiqiy baqalar, qurbaqalar, daraxtlarda yashovchi quruldoq baqalar oilalari kiradi va bular yer yuzida ancha keng tarqalgan. zbekistonda dumsiz amfibiyalarning faqat ikkita turi, yaʼni koʻl baqasi va yashil qurbaqa yashaydi. Suvda ham quruqlikda yashovchilar sovuqqonli (poykiloterml) hayvonlar boʻlib,

ularning gavda harorati tashqi muhit haroratiga bogliq. Shu bilan birga ularning hayoti atrof—muhitning namligiga ham bogliq b ladi. Amfibiyalarning yashash joylari ancha xilma—xil, k pchiligi nam joylarda yashaydi, ayrim turlari, butun umrini suvda tkazadi (dumlilar). Tropik zonalarda yashovchi oyoqsizlar esa yer tagida hayot kechiradi. Bolqon proteyi qorong'i g'or suvlarida yashaydi. Amfibiyalar sovuqqonligi sababli tashqi muhit harorati $+10\text{ C}^\circ$ b lganda faolligi susayadi, $+5 +7\text{ C}^\circ$ b lganda karaxt b lib qoladi, harorat -2 C° b lsa ladi. Shuning uchun ham amfibiyalar asosan ekvatorida tarqalib, qutbga borgan sari turlarining soni keskin kamayadi. Amfibiyalar asosan nam iqlimda yashaydi, quruq iqlimda va sh r suvda yashay olmaydi. Amfibiyalarning oziqlanishi deyarli bir xil b ladi, asosan hayvon organizmlari, itbaliqlari esa simliklar bilan ovqatlanadi. MDH hududida yashaydigan amfibiyalar hasharotlar, chugalchanglar, molluskalar, ayrim turlari xatto j jalar va sichqonlarni ham tutib yeydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1. Umurtqalilar Zoologiyasi S. Dariyev . S . To'ychiyev**
- 2. Umurtqalilar Zoologiyasi laboratoriya qo'lanma**
- 3. Vikipediya.uz**